



ISLOMIY VA AN'ANAVIY MOLİYALASHTIRISH O'RTASIDAGI
TAFOVUT

Kakharova Dildora Erkinovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada islomiy va an'anaviy moliyalashtirish tizimlari o'rtasidagi asosiy farqlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda islomiy moliyalashtirishning prinsiplariga, masalan, riba (foyda) taqiqligi, xavf va zarar bo'yicha adolatli taqsimot, va moliyaviy operatsiyalardagi shaffoflikka e'tibor qaratiladi. An'anaviy moliyalashtirish tizimining esa bank foizlari, kreditlash shartlari va kapital bozorlaridagi ishlash mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, islomiy moliya va an'anaviy moliya tizimlarining iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan taqqoslanishi, shuningdek, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlashiga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: islomiy moliyalashtirish, an'anaviy moliyalashtirish, riba, kreditlash, foiz, moliyaviy operatsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat, moliya tizimi, shaffoflik, iqtisodiy taqqoslash

Kirish. Islomiy moliyaviy tizim ma'naviy-axloqiy qoidalar bilan muvofiq keladigan aniq ijtimoiy yo'nalishga egadir. Islomiy iqtisodiyot ulamolar (G'azzoliy, Forobiy, Abu Yusuf, Ibn Xoldun) va sharq olimlari tomonidan ko'rib chiqilgan hamda ilohiy mazmun ila belgilangan qonunlar bilan tartibga solinuvchi jamiyat tuzumining bir qismi sifatida tushunilgan, Ibrohim (a. s.), Muso (a. s.), Iso (a. s.) va Muhammad sallollohu alayhi vasallam bilan tugagan Payg'ambarlar zanjiri vositasida olam haqidagi ta'limot orqali insoniyatga yetib kelgan. Mana shu ma'noda islomiy iqtisodiyot yana bir – «tavhid iqtisodiyoti» (tavhid – arabchadan yolg'iz ilohga sig'inish) deb atalgan nomga ham ega. Iqtisodiyotning ijtimoiy yo'nalganligi rivojlanishning asosiy maqsadini – xo'jalik faoliyati natijalarini taqsimlashda ijtimoiy adolatni ta'minlashni taqozo etadi. Mana shu maqsadga erishish vositasi iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ulamolar va iqtisodchilar ma'naviy odob va axloqning o'ziga xos o'rnini, xo'jalik faoliyatidagi suiste'mollik va qonunga xilof harakatlardan asraydigan uning o'zgacha qobiliyatini alohida ta'kidlaydilar.

Islom bozor iqtisodiyoti va bozor ta'sirini rad etmaydi. Hatto manfaat olishga bo'lgan rag'bat mantiq doirasida maqbuldir. Xususiy mulkchilik butkul rad etilmaydi. Shu bilan birga islomiy va kapitalistik iqtisodiyot o'rtasidagi asosiy farq



shunda ro'yobga chiqadiki, dunyoviy kapitalizmda foyda olishga bo'lgan rag'bat yoki xususiy mulkchilik iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun cheklovsiz imkoniyatlarni berdi. Ularning erkinligi biron-bir ilohiy qo'llanma tarafidan nazorat qilinmaydi. Agar ayrim cheklovlar mavjud bo'lsa ham, ular inson tomonidan o'rnatilgan va demokratik qonunchilik vositasida doimo o'zgartirilishi mumkin, u biron-bir ilohiy ta'sirlar doirasidagi vakolatni o'ziga olmaydi. Mana shunday munosabat jamiyatda nomuvofiqlikka olib keluvchi ayrim harakatlarga yo'l ochib beradi. Foizlar, qimor o'yinlari, chayqovona bitimlar boyliklarni ozchilikning qo'lida jamlanishiga olib keluvchi tendensiyaga ega. Insonning nosog'lom tuyg'ulari noaxloqiy va zararli vositalar ko'magi bilan pul ishlab topish maqsadlarida ekspluatatsiya qilinadi. Jilovlab bo'lmaydigan darajada foyda olish monopoliyalarni yaratadi, ular bozor ta'sirini falaj qiladi yoki hech bo'lmaganda uning tabiiy faoliyatiga xalaqit beradi.

Shunday qilib, bozor ta'siriga asoslanganligi ta'kidlanayotgan kapitalistik iqtisodiyot monopoliyalar emas, balki faqat erkin raqobat muhitidagina to'g'ri ishlay oladigan talab va taklifning tabiiy jarayonini amalda to'xtatib qo'yadi. Ba'zan dunyoviy kapitalistik tizimda jamiyatning manfaatlariga ishlamaydigan ma'lum bir iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi nuqtai nazar yuksak qadrlanadi va uning faoliyati davomli bo'ladi, chunki bu o'zlarining kuchli mavqelari bois qonunchilik hokimiyatida hukmron bo'lgan ayrim ta'sir doiralarining manfaatlar bilan muvofiq keladi. Demokratik hukmronlik doirasidan tashqari har qanday hokimiyat butkul rad etiladi va «Yaratganga ishonch» (har bir AQSH dollarining old tomonidagi ta'kidlar) amalda ijtimoiy-iqtisodiy sohadan chiqarib tashlangan, ilohiy ko'rsatmalar yoki boshqacha aytganda, axloq va odob iqtisodiy faoliyatni boshqarish amaliyotida tan olinmaydi. Agar insoniyat Allohning buyrug'i va shariat talablarini, har qanday holatda va nima bo'lishidan qat'i nazar, rioya etilishi lozim bo'lgan mutlaq adolat va so'zsiz amrlar sifatida qabul qilib buysunmas ekan, mana shunday munosabatlardan kelib chiqadigan ziyon-zahmatlar hech qachon tugamaydi. Xususiy mulk, foyda olishga bo'lgan rag'bat va bozor ta'sirini e'tirof etgach, islom iqtisodiy faoliyatga ma'lum bir ma'naviyahloqiy cheklovlarni o'rnatdi. Ushbu hadlar Alloh taolo tomonidan belgilab qo'yilgan Uning ilmi chegara bilmaydi, bironbir inson hukmi bilan bekor qilinishi mumkin emas. Ribo (sudxo'rlik), qimor o'yinlari, haddan tashqari darajada boylik jamg'arish, noqonuniy tovar va xizmatlar bilan tijorat amaliyotlari, qisqa sotuvlar va chayqovona amaliyotlarga taqiqlar – mana shular Yaratganning cheklovlaridan ayrim misollardir. Birgalikda jamlangan mana shu taqiqlarning barchasi muvozanatni qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlar tengligi va adolatli taqsimot bilan o'zining ta'sir kuchiga ega bo'ladi.





Islomiy moliyalashtirishning o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri – voqelikdagi (real) aktivlar asosida moliyalashtirishdir. Moliyaviy sohaning oddiy kapitalistik konsepsiyasida bank va moliyaviy muassasalar faqat pullar va monetar majburiyatlarni sotib oladilar va sotadilar. Boshqa tomondan yagona ilohga e'tiqodda pullar savdo predmeti sifatida tan olinmaydi. Pullar o'zicha hech qanday qiymatga ega emas, u faqat almashinuv vositasi, tovar yoki xizmatning puldagi ekvivalentidir. Qandaydir qiymatga ega biron narsa pulga sotilsa yoki turli valyutalar bir-biriga almashganda, foyda paydo bo'ladi. Pullar (bir valyutada) yoki ularning o'rnini bosuvchi qog'ozlar bilan kredit-qarz amaliyotlari natijasida olingan foyda o'zida pullik qo'shimcha qiymatni ifodalaydi, demak, u man etilgan hisoblanadi. Shunday qilib, oddiy moliyaviy muassasalardan farqli ravishda muqobil (islomiy) moliyalashtirish hamisha voqelikdagi (real) aktivlarga asoslanadi, oldisotdi jarayonida voqelikdagi qo'shimcha qiymat yuzaga keladi. Buni voqelikda aktivlarni yaratadigan bo'nakli moliyalashtirish vositalarida (salam va istisno' asosida) ko'rib chiqamiz. Asosan salam amaliyotlari ishlatiladigan qishloq xo'jaligida moliyaviy muassasa mijozi hosilni sotganidan keyin o'z foydasini moliyalashtiruvchi bilan bo'lishib oladi. Istisno' bilan bo'lgan holatda moliyalashtirish mablag'i infratuzilma aktivlarini ishlab chiqarishga yo'naltiriladi, to'lovi kechiktirilgan aktivni buyurtmachiga sotishdan kelgan tushum orqali moliyalashtiruvchi o'zining puli va o'rnatilgan foydani qaytib oladi.

Ijara va murobaha vositalari ham aktivlar bilan butkul ta'minlangan hamda ushbu vositalar orqali moliyalashtirish foiz asosidagi moliyalashtirishdan quyidagi jihatlar ila farqlanadi:

- an'anaviy moliyalashtirishda moliyalashtiruvchi (bank, muassasa) o'zining mijoziga ssuda foizi sifatida pullarni beradi, shundan keyin u ushbu mablag'lar mijoz tomonidan qanday ishlatilishiga aloqador bo'lmaydi. Murobaha bilan bo'lgan vaziyatda moliyalashtiruvchi tomonidan mijozga pul (naqd) berilmaydi;

- murobaha asosli ekanligiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri tovarning moliyalashtiruvchi tomonidan sotib olinishidir, bu esa uning mijozga qayta sotishdan oldin tovar bo'yicha xatarni o'ziga olishini anglatadi. Moliyalashtiruvchi da'vogar bo'ladigan foyda u o'ziga olgan xatar uchun ustama hisoblanadi. Bunday amaliyot foiz olishga asoslangan qarz hisoblanmaydi;

foizli daromad keltiruvchi qarzda qarzdorga qaytishi lozim bo'lgan miqdor vaqt o'tishi bilan ko'payishda davom etadi. Boshqa tomondan murobahada kelishuvdan keyin sotish bahosi o'rnatib qo'yiladi. Natijada, agar xaridor (bank mijozi) o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirmasa ham, yig'imlar to'lovi masalasini tartibga solish kechikkan taqdirda ham sotuvchi (bank) belgilanganidan yuqori bahoni talab





qila olmaydi. Bu shariatda pullarning davriy o'ldiruvchi konsepsiyasi mavjud emasligi bilan izohlanadi; – shuningdek, lizingda ham moliyalashtirish foydalanish huquqiga ega amaliy aktivlarni berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mulknı sotib olish va keyinchalik ijaraga berish bilan bog'liq xatarlar ijaraning butun muddati davomida ijaraga beruvchi/moliyalashtiruvchi zimmasiga yuklanadi, bundan agar lizing aktivi butkul yo'q qilinadigan bo'lsa va lizing oluvchi tomonidan sovuqqonlik yoki noto'g'ri foydalanish faktlari aniqlanmasa, u holda zararlar moliyalashtiruvchi/ijaraga beruvchining zimmasiga yuklanishi ma'nosi kelib chiqadi. Bu holatda mijoz taqdim etilgan moddiy garov hisobiga birgalikda (solidar) mas'ullikni zimmasiga olgan bo'ladi.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki, axloqiy tizimdagi moliyalashtirishning har bir shakli voqelikdagi qo'shimcha qiymatni yaratadi. Oddiy banklararo kreditlar voqelikda, kam hajmdagi tovar aylanmasidan tashqarida ko'payuvchi qo'shimcha pul massasini yaratadi. Pul massasi va real sektor o'rtasidagi mana shu uzilish inflyatsiyani kuchaytiradi, o'zaro nomuvofiqlik (disbalans) hisobiga pul birliklarining qiymati tushadi, bu, o'z navbatida, yanada arzonlashayotgan «tovar», ya'ni ta'minlanmagan qog'oz pullarda ifodalanadigan xom ashyo va xizmatlar bahosining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmurodov, A. (2020). *Islomiy va an'anaviy moliyalashtirish tizimlari: Asosiy farqlar va o'xshashliklar*. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
2. Soliev, S. (2018). *Islomiy moliya va uning iqtisodiy samaradorligi*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2021). *Islomiy moliya tizimi: Xalqaro va mahalliy tajribalar*. Toshkent: Markaziy Bank nashriyoti.
4. Kamilov, M. (2019). *An'anaviy va islomiy moliyalashtirishning iqtisodiy tahlili*. Toshkent: "Iqtisodiy fikr" nashriyoti.
5. Khan, F. (2018). *Islamic Finance: Principles and Practice*. Singapore: Pearson Education.
6. World Bank. (2020). *Islamic Banking and Finance: A Global Perspective*. Washington D.C.: World Bank Publications.
7. Tadjibayeva, D. (2021). *Islomiy moliya va an'anaviy moliyalashtirish tizimlarining taqqoslanishi*. Toshkent: "Iqtisodiy nazariyalar" nashriyoti.

